

SHIMOLIY USTRUSHONA KARVON YO‘LIDAGI URBANIZATSION JARAYONLAR VA SHAHARSOZLIK MADANYATI.

Mamatov Sharofiddin Musurmonqulovich

GulDU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shimoliy Ustrushona hududidan o‘tgan qadimiy karvon yo‘llarining urbanizatsion jarayonlar va shaharsozlik madaniyati rivojiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Ayniqsa, karvon yo‘llari bo‘yida joylashgan qadimiy shahar va qishloqlar, ularning iqtisodiy faolligi, savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlariga aylanishi, hamda arxitektura va infratuzilma taraqqiyoti o‘rganiladi. Maqola tarixiy, yozma va arxeologik manbalar asosida Shimoliy Ustrushonadagi shaharsozlikning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi.*

Kalit so‘zlar. *Shimoliy Ustrushona, karvon yo‘li, urbanizatsiya, qadimiy shaharlar, shaharsozlik madaniyati, savdo va hunarmandchilik, arxeologik manbalar*

Annotation. *This article analyzes the influence of ancient caravan routes passing through Northern Ustrushana on the processes of urbanization and the development of urban culture. Special attention is given to ancient towns and settlements situated along these routes, their economic activity, emergence as trade and craft centers, as well as the development of architecture and infrastructure. Based on historical, written, and archaeological sources, the paper highlights the distinctive features of urban planning and development in Northern Ustrushana.*

Key words. *Northern Ustrushana, caravan route, urbanization, ancient cities, urban culture, trade and crafts, archaeological sources*

O‘rta asrlar Xovos muhim savdo yo‘llari tutashgan yerda joylashib, shubhasiz, butun dunyoning qator mamlakatlaridan keladigan savdo karvonlari to‘xtashlari uchun xizmat qiladigan karvonsaroylariga ega edi. Taassufki, bu haqda boshqa ko‘p narsalar qatori manbalarda ma’lumotlar yo‘q. Shahar xarobalari yaqinida Karvonsaroy nomli qishloq bo‘lib, aqidalarga ko‘ra, ular bu yerda juda ko‘p bo‘lgani bejiz emas edi. Ular qo‘shni Zomin va Dizakda ham nihoyatda ko‘p bo‘lgan. Ustrushona shaharlarining qayeridadir, Dizak, Zomin va Xovos oralig‘ida mashhur Xudoysar karvon-saroyi bo‘lgan... Yuqorida qayd etilganidek, IX-X asrlarning ikkinchi yarmi bu Somoniylar davlatining gullab-yashnagan xalqaro savdo aloqalari kengaygan davrdir. Bu davr ma’lumotlari bo‘yicha, Samarqanddan Katvan (Bulung‘ur) dashti orqali Ustrushona yerlariga ikki asosiy yo‘l orqali borish mumkin bo‘lgan. Avvalo, Barketga borib (bir kunlik yo‘l, bu esa Samarqand

shaharlaridan biri), so‘ng Abu-Ahmad rabotiga o‘tilgan, bu yerda esa yo‘l ayrilgan. Biri shimolga qayrilib, Ustrushona shaharlari Xarkan (Xarakan) yoki Katvandiz orqali Ustrushanning chekka rustagi Feknan (Fegnan) markazi Dizakka borgan. Boshqasi sharq tomon Ustrushona yerlarining ichkarisiga davom etgan. Yo‘l Abu Ahmad rabatidan to Sa‘d robotigacha, undan Burnamad rustagi orqali Zominga chiqishgan. Birinchi yo‘l Jizzaxdan Mirzacho‘l orqali Shoshga, ikkinchisi esa Farg‘onaga olib chiqar edi.

Ko‘pincha karvonlar Shosh tomon, qulay va xavfsiz bo‘lgani uchun Farg‘ona yo‘lidan harakat qilishar edilar. Zomindan Xovosga yo‘nalib, u undan to‘g‘ri Sirdaryoga so‘ngra, Shoshning ikkinchi katta shahri Benaketga yo‘l olishar edi. Manbalarda bu yo‘l Benakent yo‘li deb yuritiladi. Tabiiyki, bu yo‘l ancha faol bo‘lgan, o‘sha manbalar ma‘lumotlari va arxeologik kuzatishlarga qaraganda u ancha qadimiy yo‘l bo‘lgan.

To‘rtko‘ltepa karvonsaroyi ham aynan shu yo‘l bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu vaqtlarda barcha yirik shaharlar va katta savdo yo‘llarida mukammal karvonsaroilar va robotlar qurilar edi. Al-Istahriy va ibn Xaqvallarning ma‘lumotlariga ko‘ra, butun Movarounnahrda o‘n mingdan ortiq karvonsaroy va robotlar bo‘lgan. Bu raqam balki ko‘p bo‘lsada, karvon savdosining yuksak rivojlanganligidan va uning davlat miqyosidagi ahamiyatidan dalolat berar edi. Ko‘pincha ular u yoki bu hukmdorning mavqeini ko‘rsatar edi. Misol uchun, VIII asrda Xuroson noibi Asad ibn Abdulloh zamondoshlarga dashtda karvonsaroy va mehmonxonalar qurishi bilan mashhur bo‘lgan: «U yerga Sharqdan va g‘arbdan sayyohlar kelib u yerda kamchilik topa olmaydilar».

Sulton Sanjar davrida Mavr vodiysining boshqaruvchisi Sharofiddin Abu Tohir ibn Sa‘d Xurosonning ikki shahri Nishopur va Marv oralig‘ida XII asr boshlarida katta Raboti Sharif karvonsaroyi qurib o‘z nomini avlodlari xotirasida qoldirdi. Uning salobotli qoldiqlari Sho‘rlaga yaqinida Mashhad va Saraxs shaharlari oralig‘ida eng mashhur va gavjum Sharq savdo yo‘llarini eslatib turadi.

Ulug‘ shoir va mutafakkir buyuk Alisher Navoiy faqat san‘at homiysi sifatidagina mashhur bo‘lmay, u Hirotida 90 ta rabot qurib, ularni ta‘minlagan va undan tashqari u Xurosonning asosiy yo‘llari bo‘ylab 50 ga yaqin robotlar qurib, tiklagan. Afsuski, bu karvonsaroilar bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Hirotida Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq birgina yarim xaroba Qo‘shrabot karvonsaroyi ma‘lum.

Qoraxoniylar sultoni Shams al-Mulk Samarqand va Xo‘jand yo‘li bo‘ylab, o‘zi qurgan karvonsaroyda yoki To‘rtko‘ltepaning Pshag‘ar karvon saroyi joylashgan yerda dafn qilingan. Bu tarzda voqealar, kam bo‘lsada, hayotda uchrab turadi. Xuddi shuningdek, Nosir ibn Ahmad davrida Isfijob viloyatining boshqaruvchisi Qorategin o‘z nomidagi, o‘zi qurdirgan rabotda dafn etilgan. Uning yaqinida 951 yili dunyodan o‘tgan al-Mansur o‘g‘lining qabri joylashgan. Ar Ravandiyning xabar berishicha, Xurosonning To‘s shahri

hukmdori Arslon Jozib o‘zi qurgan Nishopur va Saraxs oralig‘ida joylashgan Sangbast robotida dafn qilingan. Robot xarobalari va uning qabri ustidagi mavzoley qoldiqlari hanuzgacha saqlangan (Orazov) Tusdan Saraxsga borish yo‘lida Sangbast rabotidan bir kunlik yo‘lda joylashgan mashhur Maxi roboti to‘g‘risida, Hafiz Abru qiziqarli ma‘lumotlar keltiradi. Robot go‘yo, Firdavsiy xotirasiga bog‘ishlab, Sulton Mahmud G‘aznaviy tomonidan qurilgan emish.

Saljuqiylar sultoni Sanjarning (1118-1157) xotini Turkan xatun karvonsaroylar tiklovchisi sifatida mashhur bo‘lgan. Uning buyrug‘i bilan «o‘g‘uzlar isyoni» vaqtida Balx atrofidagi qabilalar (1153 yili) qo‘zg‘alganda 1154-1955-yillarda Mohi va Raboti Sharif karvonsaroylari qaytadan tiklanadi. Ko‘pincha karvonsaroylar o‘zlarining mahobatli qurilish g‘oyasi, betakror ishlanishi va ichki tuzilishining qulayligi bilan zamondoshlarini hayratga solar edi. Bu o‘rinda jahonga mashhur Akcha qal’a, Doya Xotun va Roboti Malik rabotlarni eslashning o‘zi kifoya. Karvonsaroylar ko‘p vazifalarni bajargan. Ularda nafaqat karvonlar va sayohatchilar qabul qilinar edi, balki katta savdo yarmakalari tashkil etilib, ularda qatnashish uchun yaqin atroflar dan odamlar go‘yo oqib kelar edilar.

Zomin rustoqi O‘zbekiston hududidagi eng qadimiy tarixiy va iqtisodiy markazlardan biri bo‘lib, uning rivojlanishi, savdo va madaniy aloqalardagi o‘rni yuksak ahamiyatga ega. Manbalarda keltirilishicha, Zomin shahri va atrof hududlar Buxoro, Farg‘ona va Samarqand kabi yirik savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan. Bu joylashuv shaharning savdo markazi sifatidagi o‘rnini mustahkamlagan.

Shahar atrofida bo‘lib o‘tgan arxeologik tadqiqotlar uning qadimdan rivojlangan qishloq xo‘jaligiga ega bo‘lganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, shahar yaqinida oqib o‘tuvchi suv manbalari, bog‘lar va uzumzorlar bu yerda dehqonchilikning muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Ushbu tabiiy resurslar shaharning oziq-ovqat bilan ta‘minlanishini va iqtisodiy barqarorligini ta‘minlagan.

Zomin shahrida joylashgan bozorlar va savdo rastalari esa nafaqat mahalliy aholining, balki mintaqadagi boshqa yirik savdo shaharlari bilan aloqalarni mustahkamlashda muhim bo‘lgan. Shahar devor bilan o‘ralmagan bo‘lsa-da, uning savdo yo‘llaridagi strategik joylashuvi bu qulaylikni o‘rnini to‘ldirgan.

Arxeologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, E.K.Berger va N.Nematovaning ishlari Zomin rustoqining tarixiy ahamiyatini ochib beradi. Bu tadqiqotlarda shahar o‘rta asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari ham o‘rganilgan. Tadqiqotlar shuningdek, IX asrga kelib shaharning ayrim qismlari aholisi tomonidan tashlab ketilganini ko‘rsatadi. Bu jarayon iqtisodiy pasayish va boshqa hududlarga ko‘chib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Zomin rustoqi o‘zining tabiiy resurslari, qulay joylashuvi va savdo markazi sifatida tutgan o‘rni bilan O‘zbekiston tarixida alohida o‘rin tutadi. U o‘rta asrlarda iqtisodiy, qishloq xo‘jaligi va madaniy jihatdan yuksak taraqqiy etgan. Bugungi kunda Zominning tarixiy va madaniy merosi, shuningdek, uning arxeologik jihatdan o‘rganilishi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ushbu hududni chuqurroq o‘rganish nafaqat tarixiy bilimlarimizni kengaytiradi, balki mintaqaviy madaniyat va iqtisodiyot rivojiga oid qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi.

Jizzaxning qadimiy tarixiy shahar ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Qat’iy ishonch bilan bu fikrni bildirishimizga sabab shundaki, hozirgi Jizzax shahri va uning atrofidagi hududlar Kalijat tepaligi va Urda kabi tarixiy shaharlarning o‘rnidir. Bu yerlarning qadimiy manbalarida qayd etilganligi ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, IX-XII asrlardagi arab, forsiy va turkiy yozma manbalarda Jizzax «Dizak» nomi bilan tilga olingan. Ushbu nom shahar geografik joylashuvi, tabiiy iqlimi va boshqa omillarni ifodalaydi.

Jizzax hududida joylashgan qadimiy tarixiy yodgorliklar va ularning xususiyatlari haqida ikkita tarixiy davrga oid ma’lumotlar mavjud. Bu ma’lumotlar shahar tarixining dastlabki bosqichini aniqlashga yordam beradi. Yaqin kelajakda asosiy masala Jizzaxning ilk tarixiy davrlaridagi aniq hududiy o‘rnini va sanasini belgilashdan iborat bo‘ladi.

Arxeolog olimlar, jumladan Y.G‘ulomov, N.Nemets va M.Isoqov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Jizzaxning qadimiy qismi «Eski shahar» deb nomlangan. Ushbu joyning arxeologik qazilmalari natijasida Jizzaxdagi tarixiy tepaliklar, jumladan Kalijat va Urda kabi joylar aniqlandi. Kalijat Jizzax shaharsozlik tarixida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Tadqiqotlarga ko‘ra, Kalijatning umumiy maydoni 14-15 gektarni tashkil qiladi. Bu joyda IX-XII asrlarga oid qalin mudofaa devorlari aniqlangan. Devorlarning balandligi va kengligi shaharni mudofaa qilishga qaratilganligi ko‘rsatadi.

Shuningdek, shahar arxeologik qatlamlari va ijtimoiy tuzilmalari uning rivojlanishini o‘rganishga yordam beradi. Kalijat tepaligi va uning atrofidagi qazishmalar Jizzaxning IX-XII asrlardagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini aniqlash uchun asos bo‘ladi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, Jizzaxning IX asrdagi umumiy maydoni 90-100 gektar edi. O‘rta asr manbalarida Jizzax «kichik shahar» sifatida qayd etilgan bo‘lsa-da, uning rivoji sezilarli darajada yuksak bo‘lgan. Xususan, shahar markazida joylashgan Kalijat hududi Jizzaxning ijtimoiy va iqtisodiy markazi bo‘lgan.

Shaharni mudofaa qilish maqsadida qalin devorlar qurilgan. Devorlarning asosiy qismi IX-XII asrlarda qayta tiklangan. Shuningdek, shahar atrofidagi yerlar savdo va

hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan aholi uchun mo‘ljallangan. Ushbu davrda Jizzax qadimiy yo‘llar chorrahasida joylashganligi sababli muhim savdo markaziga aylangan.

Kalijatning sharqiy qismida Jizzax-Paxtakor magistral yo‘lining qurilishi va zamonaviy infratuzilmaning rivojlanishi shahar ahamiyatini oshirgan. 1970-yillarda sanoat korxonalari qurilib, Jizzaxning zamonaviy qiyofasi shakllangan.

Shu bois Jizzax qadimiy shaharlarning o‘rganilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. U arxeologik va tarixiy tadqiqotlar uchun istiqbolli hudud hisoblanadi.



Eski Xovos arki

Xovos Ustrushona manzilgohlaridan biri bo‘lib, u amalda barcha IX-X asrlar yo‘l yo‘riqnomalarida So‘g‘ddan Ustrushona orqali Choch, Xo‘jand, Farg‘onaga borish va qaytish yo‘li manzili tarzida eslatiladi. O‘z vaqtida «Xovos yo‘li» va «Benakent yo‘llari» ham baravar mashhur bo‘lib, bir biri bilan mustahkam bog‘liq bo‘lganlar.

V.V.Bartoldning ta’kidlashicha, Chirchiq vohasida (Toshkent viloyati) ikki yo‘l: biri Xovosdan va ikkinchisi Dizakdan borgan. Xuddi shunday Xovosning o‘zidan ham ikki yo‘l: biri anchayin qisqa, Mirzacho‘l orqali, hozirda Xushket shahri deb talqin qilinayotgan Sirdaryo viloyatidagi Nurota shahar xarobalari bo‘lsa, boshqasi uzoqroq va xavfsiz Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab borgan. Bundan tashqari, Xovosga viloyat markazi Bunjikat shahridan Ustrushonaning boshqa yirik shahri Sabot orqali ham yo‘l bo‘lgan. «Katta yo‘l» janubroqdan Sabot orqali o‘tgan bo‘lishiga qaramay, savdo karvonlari odatda Xo‘jand va Farg‘onaga Xovos va Furqat orqali borishni qulay deb bilganlar. Xovosning ahamiyati, uning strategik qulayligi, bir tomonda g‘arbdan sharqqa va shimoldan janubga Bunjikat orqali Baqtriyaga o‘tgan qadimiy muhim savdo va harbiy yo‘nalishlar chorrahasida bo‘lganligidadir.

Shunday qilib, er. avv. IV asrning ikkinchi yarmidan to XIX asrgacha qadar Xovos qadim Farg‘ona, Choch va So‘g‘dda savdo va harbiy harakatlar yo‘nalishlari chorrahasidagi qulay va muhim manzil vazifasini bajargan. Yilnomalardagi savdo va harbiy yo‘llari esdaliklarida Xovos savdo yo‘li chorrahasidagi manzilgoh sifatida ko‘plab keltirilsa-da, ammo bevosita shahar to‘g‘risida ma’lumotlar yo‘q.

Dastlabki qazishmalarda aniqlangan ma’lumotlarga ko‘ra, bu devorlar mustahkam va yuqori texnologiyalar yordamida qurilgan. Bunday devorlar Xovosning savdo yo‘llari va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan hudud ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, bu yerda topilgan devorlar baland paxsadan qurilgan va suv to‘ldirilgan xandaqlar bilan o‘rab olingan edi.

Qadimiy Xovos devorlarining o‘ziga xosligi shundaki, ular nafaqat himoya, balki iqtisodiy va harbiy maqsadlarda ham xizmat qilgan. Topilgan Xovosning qadimgi davrga oid qoldiqlari bizga uning bir qancha qadimiy devorlari haqida ma’lumot beradi. Arxeologik tadqiqotlar davomida bu joyda bir nechta qazishmalar olib borildi va natijada turli davrlarga oid yodgorliklar aniqlandi. Shundan biri - Xovosning eng qadimgi devorlaridir. Bu devorlarning o‘lchamlari va tuzilishi ular er. avv. davrlarga tegishli ekanligini ko‘rsatadi.



Xovosning eng qadimgi devorlari

Hozirgi zamon arxeologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Xovosning qadimgi devorlari haqida yanada ko‘proq ma’lumot beradi. Masalan, qazishma natijasida bu yerda turli xil qurollar, suyakdan ishlangan buyumlar va boshqa yodgorliklar topilgan. Bu esa Xovos aholisi o‘rtasida yuqori darajada hunarmandchilik va harbiy tayyorgarlik mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Xovosning eng qadimgi devorlari bu hududning tarixiy ahamiyatini va uning o‘ziga xos arxitektura madaniyatini ochib beradi. Ularning o‘rganilishi tarixchilar va arxeologlar uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, bizni o‘tgan davrlar haqida ko‘plab ma‘lumotlarga ega qiladi.

Bevosita Xovos to‘g‘risidagi yozma manbalar ma‘lumotlari IX asrga to‘g‘ri keladi. Ibn Xordadbex o‘zining mashhur «Yo‘llar va mamlakatlar» asarining alohida «Zomindan Farg‘onaga yo‘l» bobida «Zomindan Xovosgacha 7 farsax va Xovosdan «Shosh daryosi» sohiligacha 9 farsax deb ko‘rsatadi. So‘ngra ko‘prik orqali Benaketga o‘tiladi. Qudama (X asrning birinchi yarmi) ma‘lumotlari bo‘yicha Zomindan Xovosgacha 6 farsax yo‘l bo‘lsa, «... Xovosdan Shosh daryosi (Sirdaryo) kechuvigacha 5 farsax. Bu kechuvdan Benaketgacha 4 farsax. Ibn Rusta (X asrning birinchi yarmi) bo‘yicha Zomindan Xovosgacha bir kunlik yo‘l. Al-Istaxriy (X asr) bo‘yicha esa, «Zomindan Xovos yo‘li orqali Farg‘ona yo‘lidan chapga Kurqatgacha 13 farsax». «Kimki Xovos orqali Zomindan Xo‘jandga bormoqchi bo‘lsa, u Kurqat orqali o‘tadi» deb Ibn Xavqal (X asr) ma‘lumot beradi.

XI asr boshlarida Xovos Somoniylar sulolasining so‘nggi vakili Muntasir (Abu Ibrohim Ismoil ibn Nuh) va qoraxoniylar iloqi o‘rtasidagi jang tafsilotlarida tilga olinadi. Yoqudning (XIII asr) ma‘lumoti bo‘yicha, «Xovos – bu Ustrushonadagi qishloq». As-Somoniylar (XII asr) qishloq nomi yozilishining Xavus shaklini keltiradi. Keyingi manbalarda yuqoridagi ma‘lumotlar kam to‘ldiriladi. Abul-Fido (XIV asr) Ibn Xordadbex ma‘lumotlarini «Xovosdan Xuskatgacha dasht bo‘ylab 7 farsax» deb to‘ldiradi.

Amir Temur hayotligida yozilgan Nizomiddin Shomiyning mashhur «Zafarnoma» asarida ham Xovos tilga olinadi. Jumladan, uning ma‘lumotiga ko‘ra, Amir Temurning o‘zlari ham Xovosda bo‘lganlar. 1367-1368 yillarda amir Xusayin va Amir Temur o‘rtalarida bo‘lgan ko‘plab to‘qnashuvlardan biri bo‘lib o‘tadi. Bu jangda Sohibqiron qo‘shinlari o‘z harakatini Xovosdan boshlab, raqibining son jihatdan nihoyatda ustun bo‘lgan qo‘shinini tor-mor qiladi. Bu voqea tafsilotlariga quyidana qaytamiz.

Ammo, mahalliy qariyalarning ma‘lumotlari asosida biz Xovosni «dastlabki» ko‘rinishini tasvur qilishimiz mumkin. Qal’a baland paxsa devor va suv to‘ldirilgan chuqur xandaqlar bilan o‘rab olingan. Zomin qal’asidagi singari uning burjlarida to‘plar bo‘lganmi yoki yo‘qmi bilmaymiz. Har qalay, ruslarning harbiy yilnomalari va tadqiqotchilarning asarlarida Xovos eslatilmaydi va uning maqomi ancha past bo‘lganligini ko‘rsatiladi.

Xovosliklar Samarqand tarixida ma‘lum o‘rin tutishgan. XVIII asr boshlarida o‘zaro ichki urushlar natijasida Samarqand vayron qilinadi va uni aholisi tashlab ketadi. «Movarounnahrda ocharchilik boshlandi... Hamma joyda, odamlar o‘z joylarini tashlab, har tomon tarqab ketdilar. Samarqand shahri «dashtga» o‘xshab qoldi» – deb yozgan edi

Muhammad Yoqub Buxoriy. XVIII asrdagi Samarqandda odamlarni ommaviy joylashishida boshqa ustrushonaliklar qatori xovosliklar ham faol qatnashdilar. Ular shaharning shimolidagi Haydarobod qismida o‘z guzarlarini tashkil etdilar. Guzar ikki: Xovosi yakum va Xovosi duvvum qismlariga bo‘linib, shimolda Yusufboy, sharqda Minori kaj va Bibixonim masjidi bilan, janubi-g‘arbda esa Pastqishloq (Maxovxona) bilan chegaradosh edi. Guzar hududida ikki masjid – Masjidi Bologuzar va Pastguzar, maktab, madrasa, besh mozar va karvonsaroy bor edi.

Xovos tarixi bo‘yicha ma’lumotlar hozirgi zamon nashrlarida ham uchraydi. Ammo ulardagi qadim va o‘rta asrlar davri bo‘yicha ma’lumotlar noaniq va asosan XX asrning ikkinchi yarmidagi voqealari aks ettirilgan. Xovos tarixi bo‘yicha yozma manbalar ma’lumotlarini takrorlashdan cho‘chimay shularni tilga olish mumkin. Ular nihoyatda tor va qisqa parchalar bilan birgalikda, arxeologik ma’lumotlar bilan birgalikda Xovos va umuman Ustrushona tarixini tiklashga yordam beradi

Zarur bo‘lgan taqdirda, ularning ko‘pchiligida ovqat, ko‘rpa-to‘shak, hayvonlar uchun yemish va suv ham bo‘lar edi. Al-Istaxriy qiziqarli hikoyani keltiradi. Uningcha, u So‘g‘dda bir rabot ko‘rgan, uning eshiklari ochiq holda qattiq mustahkamlangan. Bu darvozalar 100 yildan ortiqroq vaqtdan beri yopimay, yo‘lovchi uchun har doim tunashga joy berilgan. Robotda 200 kishi ot ulovlari bilan joylashishi mumkin bo‘lgan. Keling yana al-Istaxriy va ibn Xaqval keltirgan o‘n ming raqamiga qaytaylik. Bu qanchalik to‘g‘ri? Safaviylar davrida Eronda bir necha ming robotlar bo‘lib, «eron karvonsaroylarining oltin davri» deyiladi. Mashhur nemis olimi va uning eronlik hamkasbi Safaviylar davrida Eronda karvonlar harakatini ta’minlagan karvonsaroylar va boshqa manzillarni to‘liq ro‘yxatini tuzishgan. Ularda shunday raqamlar bor: Faqat Isfahonning o‘zida Abbosshoh 1 davrida 162 masjid, 48 madrasa, 274 hammom va 1802 karvonsaroy bo‘lgan (boshqa axborotga ko‘ra 1082). Abbosshohning ona shahri Ardebvildagi Safaviylar katta masjidi vaqfida bo‘lgan boshqa turli inshootlar qatorida 8 ta karvonsaroy bo‘lib, ular anchagina daromad keltirishgan. Bularning barchasi al-Istaxriyning Movarounnahr to‘g‘risidagi ma’lumotiga boshqacha baho berishga undaydi, chunki u ancha obro‘li, ma’lumotlari aniq muallif hisoblanadi. U keltirgan raqamlarga karvonsaroylar va rabatlar bilan birga karvonlarga xizmat qilishga aloqador va savdo yo‘li bilan bog‘liq boshqa ko‘plab inshootlar (pochta manzillari, nazorat joylari, sardobalar va suv yig‘gichlar) ham kiritilgan.

Foydanilgan adabiyotlar.

- 1) Kudratov, D. (2023). ABOUT THE SHRINE OF KHOJAMUSKENT FATHER IN JIZZAH OASIS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 73-78.
- 2) Қудратов, Д. (2022). IX-XIV АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ ШАҲАРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ОМИЛЛАРИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 236.
- 3) Qudratov, D. (2021). PECULIARITIES OF THE FIRST URBANIZATION PROCESSES IN THE FERGANA VALLEY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 2(12), 13-16.
- 4) Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 28-41.
- 5) Davron O‘g‘li, A. D. (2025). AFSHINLAR SULOLASINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 600-605.
- 6) Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O‘ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. *TA‘LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 90-101.
- 7) Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O‘ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 11-27.
- 8) Davron O‘g‘li, A. D. (2025). ILK O‘RTA ASRLAR DAVRI YOZMA VA ARXEOLOGIK MANBALARIDA USTRUSHONA. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 606-612.
- 9) Davron o‘g‘li, A. D. (2025). O‘RTA OSIYO KO‘CHMANCHI CHORVADORLARI TARIXINING O‘RGANILISHI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(8), 100-113.
- 10) Davron O‘g‘li, A. D. (2025). ILK O‘RTA ASRLARDA USTRUSHONADAGI SIYOSIY HOLAT. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 613-619.
- 11) Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA‘LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 47-53.
- 12) Маматов, Ш. М., & Алибеков, У. Ю. (2019). Повышение благосостояния сельского населения Узбекистана в свете Стратегии действий. *Наука, техника и образование*, (5 (58)), 63-65.

13)Nematov, R. A., & Almanov's, Q. O. (2022). The role of historical sources in the study of the history of the turkish empire. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(10), 25-31.

14)Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 122-125.

15)Неъматов, Р. (2023). Хоразм Африғийлар сулоласи–Турк хоқонлиги сиёсий алоқалари. *Journal of Fundamental Studies*, 1(7), 16-23.

16)Галиев, С., Абдуматов, А., & Неъматов, Р. (2025). ГЕРОИ-ТАТАРЫ УЗБЕКИСТАНА, УЧАСТВОВАВШИЕ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ. *Наука и инновации в системе образования*, 4(4), 35-39.

17)OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 86-94.

18)Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 45-49.

19)Неъматов, Р. (2023). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(6), 14-23.

20)Ne'matov, R. (2023). ILK O 'RTA ASRLARDA XORAZM TARIXSHUNOSLIGINING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. *Interpretation and researches*, 1, 21.

21)Неъматов, Р. А. У. (2020). Интеллектуальное и культурное наследие узбекского народа. *Наука, образование и культура*, (4 (48)), 85-87.

22)Nematov, R. A. (2025). Early medieval ethnic processes in Khorezm oasis in archaeological and written sources. *American Journal of Philological Sciences*, 5(02), 10-16.

23)Nematov, R. (2024). REFLECTION OF THE HISTORY OF KHOREZM IN THE EARLY MIDDLE AGES IN WRITTEN SOURCES. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(12), 72-78.

24)Неъматов, Р. А. Ў. (2024). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМ ТАРИХИНИНГ ЁЗМА МАНБАЛАРДА АКС ЭТИШИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 377-382.

25)BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(5), 61-65.

26)Назаров, О., & Абдуматов, А. (2024). ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДАГИ ОЛТИН ДАВР. *Ilm-fan va ta'lim*,(3 (18)), 151, 312.

27)Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 5(12), 16-21.

28)Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАҒАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.

29)Bosimovich, T. B., & Jonibek, R. (2022). FROM THE HISTORY OF EARLY MEDIEVAL POTTERY CRAFT. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 86-87.

30)Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO 'CHMANCHILIK FENOMENINING O 'RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).

31)Komil o'g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O 'RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 343-349).

32)Абдуматов—Исследователь, А., & Маъруфов, Ш. (2025, May). ТУРЕЦКАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ—ЧЛЕНОВ ЕАЭС (1991–2015 ГГ.). In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 293-296).

33)Komil o'g, M. R. S., Axmatkulovich, A. A., & Vildanovich, G. S. (2025, May). XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI VA BAYTUL-HIKMA OLIMLARI O 'RTASIDAGI O 'ZARO HAMKORLIK. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 305-311).

34)Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO 'LNI O 'ZLASHTIRISH VA KO 'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).

35)Galiyev, S. (2024, September). O 'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MAXSUS TA'LIMI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 8, pp. 110-114).

36)Galiyev, S. (2024). O 'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARINING O 'RNATILISHI VA RIVOJLANISHI. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(9), 70-74.

37)Hakimova, S., & Galiyev, S. (2025). INGLIZ PARLAMENTING TARIXIY O 'ZGARISHLARI. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 157-163.

38)Шадманкулова, М. М. (2018). СОЧЕТАНИЕ ЛИБЕРАЛЬНЫХ-ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА. *Социосфера*, (4), 226-232.

39)Шодмонкулова, М. М. (2018). ЛИБЕРАЛИЗМ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ. *Наука и образование: проблемы, идеи, инновации*, (4), 26-30.

40)Шодмонкулова, М. (2025). ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРНИНГ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШДАГИ ЎРНИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 176-181.

41)Шодмонкулова, М. (2025). ҒАРБ ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 164-169.

42)Шодмонкулова, М. (2025). Либерал-Демократик Ғояларнинг Тараққиёт Стратегиясини Амалга Оширишдаги Ўрни. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 170-175.

43)Шодмонкулова, М. (2025). ЎРТА СИНФ-МУЛҚДОРЛАР СИНФИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 152-156.

44)Шодмонкулова, М. М. (2025). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА СИЁСИЙ ЛИБЕРАЛИЗМНИНГ АҲАМИЯТИ. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 4(38), 354-357.

45)Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 7(7), 540-545.

46)Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ В НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. *Вестник Российского философского общества*, (1-2), 200-209.

47)Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI'S TEACHING ABOUT BEING. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021(2), 61-67.

48)Mavlyanov, U. (2022). ABOUT “THE ART ACADEMY OF BAYSUNKUR”. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 133-138.

49)Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). ФРИДРИХ НИЦШЕ ВА МАДАНИЯТНИНГ ИРОДА АСОСИДАГИ ТАЛҚИНИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 91-98.

50)Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). СЛАВЯН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ ВА УНИНГ КЕЛАЖАГИ: ДАНИЛЕВСКИЙ БАШОРАТИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 82-90.

51)Mavlyanov, U. N. (2023). Issues of Knowledge in the Legacy of Ali Safi. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(07), 41-43.

52)Мавлянов, У. (2025). АЛЛОМАГА НАВОИЙ ТАЪРИФИ. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(7), 142-146.

53)Мавлянов, У. Н., & Тангирбердиев, Ш. (2025). АЛИ САФИЙ ҲАЁТИ ВА МЕРОСИ ҲАҚИДА. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 78-84.

54)Мавлянов, У. Н. (2025). АЛЛОМАНИНГ МЕРОСИДА БОРЛИҚ ВА БИЛИШ МАСАЛАЛАРИНИНГ ҚЎЙИЛИШИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 73-77.

55)Мавлянов, У. Н. (2025). БУЮК СИЙМОЛАР БЕШИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 68-72.

56)Исроилов, М. Я. (2019). Образование и его развитие в Узбекистане. *Academy*, (5 (44)), 48-49.

57)Исроилов, М. Я. (2015). Влияние использования Интернет-ресурсов на повышение эффективности обучения истории. *Наука, техника и образование*, (5 (11)), 147-148.

58)Исроилов, М. (2024). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС: ТАРИХИЙ ПОЙДЕВОР ВА ИСТИҚБОЛ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 419-423.

59)Исроилов, М. Я. (2016). РОЛЬ РАЗЛИЧНЫХ ТРАДИЦИЙ, ОБРЯДОВ И ЦЕРЕМОНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПОЛОМ И ВОЗРАСТОМ, В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ И ЭТНОГРАФИИ УЗБЕКОВ. In *Люди, культуры, пространство: социокультурная динамика мира Евразии* (pp. 231-235).